ISSN 2181-6833
9 772181 683301

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930

ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

4
2024



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2024-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

**PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**
**2024, № 4**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY’ATI:**
**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*
*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*
*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*
*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*
*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*
*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*
*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*
*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*
*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*
*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*
*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*
*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*
*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*
*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
*Jumayev Rustam G’aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО**
**Научно-теоретический и методический журнал**
**№ 4, 2024**

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика**» и «**Психология**».

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*
*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*
*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*
*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*
*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*
*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*
*Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*
*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*
*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*
*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*
*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*
*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*
*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*
*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*
*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*
*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*
*Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*
*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*
*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*
*Чариев Ирграш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*
*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*
*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*
*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*
*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*
*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*
*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*
*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*
*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*
*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*
*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*
*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

**PEDAGOGICAL SKILLS**
**The scientific-theoretical and methodical journal**
**№ 4, 2024**

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

**EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*
*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*
*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*
*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*
*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*
*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*
*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*
*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*
*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*
*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*
*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*
*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*
*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*
*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*
*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*
*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*
*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*
*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*
*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*
*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*
*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

**MUNDARIJA**


| № | Familiya I.Sh. | *Mavzu* | Bet |
|---|---|---|---|
| | | **MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM** | |
| 1. | ***KORAYEVA Latifa Zarifovna*** | Kreativlik – boshlang‘ich sinif o‘quvchisi faoliyatining asosi sifatida | 8 |
| 2. | ***MAMUROV Baxrom Baxshulloyevich*** | Harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi | 13 |
| 3. | ***NAJMETDINOVA Nargiza Sayfetdinovna*** | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga informatikani o‘rgatishda o‘yinli ta’limning o‘rni | 19 |
| 4. | ***PO‘LATOVA Madina Shavkatovna*** | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatini rivojlantirishning o‘ziga xos usullari | 23 |
| 5. | ***SAPARNIYAZOVA Aygul*** | Ilm-fan va tabiat markazlarida bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari | 28 |
| 6. | ***NAJMETDINOVA Nargiza Sayfetdinovna*** | Boshlang‘ich sinflarda muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini informatika fani orqali rivojlantirish | 32 |
| 7. | ***SUVONOVA Yulduz Said qizi*** | Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning muhimligi | 36 |
| 8. | ***САЛИМОВ Ғайрат Муҳаммедович*** | Болаларда жисмоний сифат кўникмаларини мустаҳкамлашда инновацион ёндашув | 39 |
| | | **FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH** | |
| 9. | ***BAZARBAYEVA Azizaxon Shokirovna*** | Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi nutqiy faoliyat mashqlarining metodologik tahlili | 44 |
| 10. | ***ERGASHEVA Gulnora Nematovna*** | Pedagogical and psychological features of teaching english to preschool children based on an integrative approach | 48 |
| 11. | ***БАБАКУЛОВА Дилобар Мустафаевна*** | Педагогические условия развития коммуникативной компетенции на уроке русского языка и во внеурочной деятельности по русскому языку в средней школе | 52 |
| 12. | ***САДИНОВА Дилфуза Умировна*** | Внедрение коммуникативных стратегий в процесс изучения русского языка | 58 |
| 13. | ***ШОДМАНОВА Алёна Сергеевна*** | Интерактивная технология при обучении чтению | 62 |
| 14. | ***SHOKIROVA Markhabo Sharifovna, RAKHIMOV Davron Mutalib o‘gli*** | Influence of artificial intelligence in learning process of efl classes | 68 |
| | | **ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH** | |
| 15. | ***MURODOVA Sitorabonu Bahodir qizi*** | “Aromatik uglevodorodlarning nomlanishi va izomeriyasi” mavzusini o‘qitishda zamonaviy kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish | 74 |
| 16. | ***AMINOV Bahrom Burxonovich*** | Umumta’lim maktablarida “informatika va axborot texnologiyalari” fanida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanishning pedagogik jihatlari | 79 |
| 17. | ***JABBAROV Anvar Egamovich, AXMEDOV Nurali Odilovich*** | Pozitsion va metrik masalalarni ishlash | 84 |

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DIQQATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

***Po‘latova Madina Shavkatovna,***
*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada* ***t****a’lim faoliyati uchun bolalardan barqaror diqqat, o‘tkir zehn, mustaqillik ishchanlik va batartiblik xislatlari bo‘lishi kerakligi, bolalarning maktablarga o‘tishlari bilan yuzaga keladigan jiddiy o‘zgarishlar, ularning maktabdagi yangi muhitga har tamonlama tayyorlash lozimligi bog‘chalardagi maktab yoshiga to‘lgan bolalar maktabdagi o‘qishga hammasining ham tayyorgarligi bir emasligi, ayrim bolalar maktabga borgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmasliklari sabablari, bolalarda 6-7 yoshdan boshlab shakllanadigan shaxsiy ong haqida aytilgan. Shuningdek, bolalarning maktabdagi o‘qishga tayyorligi, shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichiga bola o‘z-o‘zidan ko‘tarilmasligi, yetti yoshga to‘lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o‘sishi maktabda, oilada olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshirilishi, maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorgarlik lozimligi, bolada diqqatning xususiyatlari roli va syujeti o‘yinlarda, rasm chizish va ko‘rish, yasash mashg‘ulotlarida ko‘rinishi keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *diqqat, pedagogik qobiliyat, ijtimoiy yetuklik, ko‘nikma, malaka, ixtiyorsiz diqqat, beqaror diqqat, emotsiya.*

## СПЕЦИФИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ВНИМАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

*В данной статье рассматривается вопрос о том, что для учебной деятельности необходимо наличие у детей устойчивого внимания, острого ума, самостоятельности, деловых и организационных качеств, существенные изменения, происходящие с переходом детей в школы, их всесторонняя подготовка к новой среде в школе, что не все дети школьного возраста в детских садах имеют одинаковую готовность к обучению в школе, что некоторые дети, причины, по которым они не могут уйти, описаны в личностном сознании, которое формируется у детей с 6-7 лет. Также необходимо учитывать готовность детей к обучению в школе, неспособность ребенка самостоятельно подняться на ступень социальной зрелости личности, что дальнейший психический рост детей, достигших семилетнего возраста, осуществляется в процессе учебно-воспитательной работы в школе, в семье, что школьное образование должно быть подготовлено психологически в первую очередь, особенности внимания ребенка к роли и сюжету в играх, рисовании. и видение, видение в мастер-классах по изготовлению.*

***Ключевые слова:*** *внимание, педагогические способности, социальная зрелость, навыки, компетентность, непроизвольное внимание, неустойчивое внимание, эмоции.*

## SPECIFIC WAYS TO DEVELOP THE ATTENTION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*In this article, for educational activities, children should have the qualities of stable attention, sharp intelligence, independence, hard work and creativity, serious changes that occur when children go to school, they should be fully prepared for the new environment at school, and all children of kindergarten age are ready for school. It is said that it is not, the reasons why some children cannot quickly adapt to new conditions when they go to school, and about the personal consciousness that is formed in children from the age of 6-7. Also, the children's readiness to study at school, the fact that the child does not rise to the stage of social maturity of the individual by himself, the psychological growth of children who have reached the age of seven and go to school should be carried out in the process of educational work carried out at school and in the family. The importance of preparation, the role and plot of children's attention characteristics in games, drawing and viewing, making activities are presented.*

***Keywords:*** *attention, pedagogical ability, social maturity, skills, competence, involuntary attention, unstable attention, emotion.*

**Kirish qismi.** Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqea hisoblanadi. Bu hodisa ularga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning o‘yin faoliyati endi asta-sekinlik o‘qish faoliyatiga o‘zgara boshlaydi-yu, bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi ta’lim bo‘lib qoladi. 6- 7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo‘lgan o‘qish ulardan yangi sifat, yangi

xususiyatlarga ega boʻlishlarini talab etadi. Ta’lim faoliyati uchun bolalardan barqaror diqqat, oʻtkir zehn, mustaqillik ishchanlik va batartiblik xislatlari boʻlishi kerak. Bolalarning maktablarga oʻtishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy oʻzgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi har tomonlama tayyorlash kerak. Shu narsa diqqatga sazovarki, hamma bogʻchalardagi maktab yoshiga toʻlgan bolalar maktabdagi oʻqishga bab-baravar tayyor boʻlavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga borgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda oʻqish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek koʻrinadi. Yetti yoshga toʻlish davri bogʻcha davrining tugashi davriga toʻgʻri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda oʻz-oʻzini anglash tarkib topa boshlaydi. Bolalarda 6-7 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Shunday hollarda koʻrinadiki, bolalar oʻzlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan oʻz oʻrinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq, yanada toʻlaroq munosabatlar sistemasini oʻrgatishga intiladilar. Bolalarning maktabga oʻtishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy oʻzgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi har tomonlama tayyorlash kerak.

**Tadqiqot obyekti.** Bolalarning maktabdagi oʻqishga tayyorligi, shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichiga bola oʻz-oʻzidan koʻtarilmaydi. Uni bu bosqichga bogʻchadagi va oiladagi butun ta’lim tarbiya ishi koʻtaradi. Yetti yoshli bolalarning his-tuygʻulari ancha oʻsadi. Xayrixohlik, rahmdillik, oʻrtoqlik kabi his-tuygʻular mustahkamlana boshlaydi. Yetti yoshga tulib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jixatdan bundan keyingi oʻsishi maktabda oilada olib boriladigan ta’lim tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi. Maktab ta’limiga avval psixologik jixatdan tayyorlanadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror boʻladi. Bola diqqatning xususiyatlari roli va suyujeti uyinlarda, rasm chizish va kurish yasash mashgulotlarida, loy hamda plastindan oʻyinchoqlar tayyorlashda, oʻzgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tizishda koʻrinadi. Bola oʻz diqqatini muayyan ob’ektga tuplashga intiladi. Shuningdek, ta’lim uchun psixik oʻsish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafoutlari, sharoitlari, uziga xosligi, uning sixat-salomatligi, usuliy jixatdan tayyorgarligi, oddiy muvofiqdir. Bola maktab ta’limida psixologik tayyorlanishning subyektiv tomoni ham mavjuddir. Uning muloqatga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bogʻliqdir. Oʻqituvchi ta’lim-tarbiya jarayoning asosiy ishtirokchilaridan biridir. Oʻqituvchi-yosh avlodni xayotga, mexnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odam. Bolalar psixologiyasi fani oʻqituvchisi boʻlajak murabbiylarga tarbiyachilarga kasbiy jihatdan oʻta ahamiyatli boʻlgan bilimlar- bolalar psixik taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beruvchi, ularda psixologik faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak boʻladigan koʻnikma va malakalarni shakllantiruvchi mutaxasis.

**Qoʻllanilgan metodlar.** Bolalar psixologiyasi fani oʻqituvchisiga barcha pedagoglarga qoʻyiladigan umumiy talablardan tashqari yana quyidagi talablar qoʻyiladi.

1 Umumiy va bolalar psixologiyasidan tashqari psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, maxsus psixologiya boʻyicha bilimga ega boʻlish.

2. Maktabgacha tarbiya muassasi tarbiyachisining ish faoliyatiga xos xususiyatlarni yaxshi bilish.

3. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari yuzasidan mustaqil tadqiqotlar oʻtkaza olish va bu jarayonga talabalarni jalb eta bilish.

4. Muntazam ravishda ilgor tarbiyachi-murabbiylarning pedagogik tajribasini oʻrganib borish va targʻib qilish.

Bolalar psixologiyasi fani oʻqituvchisi pedagog sifatida quyidagi qobiliyatlarga ega boʻlishi kerak.

1.Didaktik qobiliyat. – oʻquv materialini aniq va ravshan tushuntira bilish.

2. Akademik qobiliyatlar – oʻz fanidan tashqari boshqa sohalar boʻyicha ham keng bilimga ega boʻlish.

3. Pertseptiv qobiliyatlar – talaba ichki dunyosiga kira bilish, kuzatuvchan boʻlish.

4. Nutqiy qobiliyatlar – oʻz fikrini, his– tuygʻusini nutq yordamida ifodalab bera olish.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - talabalar jamoasini uyishtira olish, jipslashtira olish, ishini tashkil etish.

6. Avtoritar qobiliyatlar – talabalarga bevosita emotsional- irodaviy ta’sir koʻrsata bilish.

9. Diqqatni taqsimlash olish qobiliyati – bir vaqtning oʻzida diqqatni bir qancha faoliyatga talabaga qarata olish[1].

1-2 sinflarda yozuv topshiriqlari juda koʻp boʻlmasligi kerak. Birinchi sinfda bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

1. Kun tartibi bilan bogʻliq qiyinchiliklar. Oʻquvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bogʻliq yangi kun tartibiga oʻrganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qoʻyiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.

2. Muloqot bilan bog‘liq qiyinchiliklar bo‘lib, ular o‘qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o‘rnatilishi zaruriyati bilan bog‘liqdir.

3. Bu qiyinchiliklarni o‘quvchilar o‘quv yilining o‘rtalarida his qila boshlaydilar. Birinchi sinf o‘quvchilarida odatda maktabning tashqi atributlariga qiziqish mavjud bo‘lib, o‘quv materialining mazmuniga qiziqish esa zaif shakllangan. Shu sababli o‘quvchida o‘qishga qiziqish yo‘qolishi, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga aktiv intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish, oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak.

O‘quv faoliyati. U quyidagi struktura tuzilishiga ega:

1) O‘quv situatsiyalari. Unda o‘quvchilar konkret amaliy masalalari yechish yoki tushunchalarni o‘zlashtirishning umumiy usullarini o‘zlashtirishlari kerak. O‘quvchi ularni shunday muammoli vaziyat sharoitga qo‘yish kerakki, unda o‘quvchilar bu usullarni topa olishlari zarur.

2) O‘quv harakatlari. Har bir o‘quv predmetida o‘quv masalalarini echish uchun bir nechta o‘quv amallari va ularning ketma-ketligini bajarishni o‘zlashtirish muhimdir. Buning uchun o‘qituvchi dars davomida o‘quv harakatlarining mashqlar yordamida mustahkamlanishini ta`minlashi lozim.

3) O‘quv faoliyati to‘liq shakllanishi uchun yana bir komponent – nazoratning shakllanishi zarurdir. O‘quvchi o‘z harakatlarini va ularning natijalarini berilgan namunalar bilan taqqoslashi va baholay olishi kerak. Avval bu vazifani o‘qituvchi bajaradi.

4) Baho – o‘quv situatsiyasining talablariga erishilgan natijaning mos kelish-kelmasligi darajasini aniqlashdir. O‘quvchining faoliyatiga qo‘yiladigan baho sinf jurnaliga qo‘yiladigan baho bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchi bilimini baholashning turli usullarini qo‘llashi kerak.

**Bilish jarayonining o‘sishi.** Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi bilan ajralib turadilar. Buni ularda birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Ta`lim jarayonida o‘quvchilar idroki perqeptiv faoliyat darajasiga ko‘tariladi. Birinchi va ikkinchi sinflarda o‘quvchilarning diqqati etarli barqaror emas. 3-4-sinf o‘quvchilari esa butun dars davomida o‘z diqqatlarini saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham dars davomida qisqa tanaffuslar foydalidir. Bolalarda birinchi signal sistemasi ustun bo‘lganligi sababli mantiqiy xotiradan ko‘ra ko‘rgazmali-harakatli xotira muhimroq rol` o‘ynaydi. Ta`lim jarayonida o‘quv materiallarining ma`nosini, turli mulohazalarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o‘quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Uning rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog‘liq. Maktab yoshdagi tafakkurning xususiyatlaridan biri narsalarning ba`zi belgilari doimiyligini payqab olmaslikdir. Bolalar tafakkurining bu xususiyatini shveycariyalik J.Piaje o‘rgangan. Narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlariga ko‘ra muhim belgilarga asoslanib umumlashtirish xususiyati esa keyinroq shakllana boshlaydi. Bolalar ancha vaqtgacha predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini ajrata olmay qiynaladilar. Shuning uchun tushunchani to‘g‘ri umumlashtirish usullarini o‘rgatish kerak.

**Kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik o‘zgarishlar.** Bu yoshda yetakchi faoliyat o‘quv faoliyati bo‘lib, ta`lim jarayoni psixikada yangi xususiyat va sifatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

1. Xatti-harakatlarning ixtiyoriy xususiyat bo‘lib, o‘quvchi ishlarini avvaldan rejalashtirish, ongli ravishda faoliyat maqsadlarini tanlashni o‘rganadi.

2. O‘quvchi biror masalani yechish davomida har bir harakatning tartibi, variantlarini qidiradi, masalaning hal qilinishini nazorat qiladi, ya`ni o‘quvchi xatti-harakatlarini ichki planda bajarishni o‘rganadi.

3. Bola o‘z xatti-harakatlarini va xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslaydi, o‘zini xolis baholashni o‘rganadi, ya`ni refleksiya rivojlanadi[2].

**Olingan natijalar va ularning tahlili: Bolalar shaxsining rivojlanishi**. Bu yoshda xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar bu normalarni o‘zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyor bo‘ladilar. O‘qituvchi ulardagi ijobiy axloqiy sifatlarni rahbatlantirishi,, salbiylari shakllanishining oldini olishi zarur. Bu yosh davridagi bolalarning o‘zaro munosabatlari asosan tashqi hiyotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar bilan belgilanadi (bir partada o‘tirishi, bir uyda yashashi va h.k.). Lekin o‘qituvchi ular uchun eng asosiy referent shaxs sifatida idrok qilinadi.

Bog‘cha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog‘chadagi sharoitgagina emas, balki ko‘p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog‘liqdir. Shuning uchun ham bolalaming diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo‘lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o‘zlarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o‘tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya’ni ma’lum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik mashg‘ulotlarda intizom buzish va boshqalarga xalaqit

berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishlari (har xil mas’ulyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini hamda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Bog‘cha yoshida bolalarda avvalgi davrlaiga nisbatan diqqatning ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlamikiga nisbatan hali ham juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog‘lanmagan harflami yoki raqamlami) sig‘dira olsa, bog‘cha yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o‘rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo‘shangligidan emas, balki o‘z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo‘la omaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi. Diqqat ko‘lamining kengligi aniq idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayniqsa bolalaming o‘qish faoliyatlari uchun zarur. Shuning uchun bolaning bog‘cha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, instsenirovkalar, har sohaga doir rasralar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar katta rol o‘ynaydi[3]. Maktabdagi ta’lim jarayoni uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat bog‘chada didaktik mashg‘ulotlar, hikoyalar o‘qib berish davomida rivojlantiriladi. Bog‘cha yoshidagi bolalaming diqqati ko‘pincha ulaming qiziqishi hamda hissiyotlari bilan bog‘liqligi sababli kontsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bola diqqatining bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalami qaytaqayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklami qayta-qayta aylantirib eshita beradilar. Shunday qilib, bolaning bog‘chagacha va bog‘cha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning beitiyorsiz turi ko‘proq rivojlanadi. Lekin bolaning bog‘cha yoshidagi faoliyat va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun bog‘chada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish кегак. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta’lim jarayonida amalga oshiriladi.

Kichik maktab yoshidagi bola ma’lum darajada o‘z faoliyatini o‘zi mustaqil rivojlantira oladi. U o‘z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma -ketlikda bajarishni so‘z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so‘zsiz bolaning diqqatini tashqil eta oladi va rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyani tashqil etilishini talab etadi. O‘quv faoliyati boladan berilgan o‘quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o‘qituvchi o‘quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko‘rsatmalar beradi. O‘quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu Yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo‘lgan qiziqishi belgilab beradi. O‘quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi Birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarda mantiqiy xotiradan ko‘ra ko‘rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi. Shuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko‘ra yaqqol ma’lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta’lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya’ni ma’nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o‘sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba’zan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo‘lgan materialni ham ma’nosiga e’tibor bermasdan, mexanik ravishda o‘rganib oladilar. Respublikamizning psixolog olimi E.G‘.G‘oziyevning fikriga ko‘ra, buning sabablari quyidagilar:

1)ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma’lumotlarni aynan,o‘zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) o‘quvchilar o‘qituvchi qo‘ygan vazifani anglab etmaydilar,natijada uning “to‘g‘ri tushuntirib ber” degan talabini so‘zma-so‘z takrorlash deb biladilar;

3)ularning nutq boyligini etishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to‘ldirish, unga qo‘shimcha qilish imkoniyati yo‘qligi uni so‘zma-so‘z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o‘quvchilar matnni to‘g‘ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar. Bunday holat shu yoshdagi bolalarda albatta bo‘lishi kerak emas. Mexanik esda qoldirish ko‘pincha o‘qituvchilar o‘quvchilarida

mantiqiy xotirani o‘stirishga etarli e’tibor bermagan hollarda bo‘lishi mumkin.Ta’lim jarayonida o‘quv materialining ma’nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqali o‘quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushirish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi

**Xulosa.** Maktabda o‘quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o‘zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz va sintez qilishni o‘rganib oladi. Bolaning maktabdagi o‘qishi jarayonida unda abstraksiyalash qobiliyati o‘sa boshlaydi. Boshqa fanlarni o‘qish jarayonida bu qobiliyat yanada o‘sadi. Bola analiz qilish, abstraksiyalash va taqqoslashni, mashq qilish yo‘li bilan narsalarning muhim belgilari bilan ahamiyatsiz belgilarini bir-biridan farq qilishni, predmet, voqea-hodisalarning muhim belgilariga qarab turib xulosalar chiqarishni o‘rganadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘smirlardan farq qiladi. Ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni barkamollikka erishtirishning garovidir. 6-11 Yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko‘rganlariga tayanib, ta’lim olishga senzitiv bo‘lgan davr hisoblanadi, Boshlang‘ich maktabning o‘zidayoq bolalar birinchi sinfdan boshlab ko‘p miqdorda xilma-xil tushunchalarni — grammatikaga, arifmetikaga, tabiatga doir, Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni o‘zlashtirib oladilar. O‘quvchilar o‘zlashtirib oladigan tushunchalar doirasi, asosan, har qaysi sinf uchun turli fanlar yuzasidan tuzilgan o‘quv dasturi bilan belgilanadi. Muayyan ilmiy mazmunga ega bo‘lgan tushunchalar o‘quvchilarga mantiqiy ifodalangan shaklda bayon qilib beriladi. O‘quvchilar o‘zlarining ham tushunchalarini mazmunini ta’riflab, ularning jins va turlariga doir belgilarini ko‘rsatib, aytib berishni o‘rganadilar. O‘quvchilar tushuncha va qoidalarni ta’riflab berolmay qolganlarida yoki ta’riflash mumkin bo‘lmagan paytlarda tasvirlab, taqqoslab, xarakterlab, misollar bilan ko‘rsatib beradilar.

## Adabiyotlar:


1. G`oziyev E.G‘. ‘Tafakkur psixologiyasi’. O`qituvchi nashriyoti. 1990 yil.
2. Krutetskiy V.A. ‘Pedagogik-psixologiya asoslari’ Toshkent-1976 yil.
3. Nishonova Z.T, G.Alimova ‘Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi’ Toshkent-2003 yil
4. Qodirov B.R, Qodirov K.B ‘Kasbiy tashhis metodikalari to`plami. Toshkent-2003 yil.
5. Xaydarov F.I, Xalilova N.I ‘Psixologiya fanlarini o`qitish metodikasi’ Toshkent-2006 yil.
6. Khojieva, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. *TJE-Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.

## "PEDAGOGIK MAHORAT" JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

**"PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**

1. "**PEDAGOGIK MAHORAT**" ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo'lsa, ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O’zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

***Web site:*** www.buxdu.uz

***E-mail:*** nashriyot_buxdu@buxdu.uz

***Telegram raqami:*** +998 (94) 837-18-38.




Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
**BuxDU** 400110860064017094100079001

***Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!***

**PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2023-yil 11-son (98)**

**2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**
**Nigora SAYFULLAYEVA**
**Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA**
**Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 30.08.2023
Bosmaxonaga topshirish vaqti 31.08.2023
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.